

MAHALLA INSTITUTINING JAMIYATNI YUKSALTIRISHDAGI STRATEGIK O'RNINI VA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI

Abduraupov Bekniyoz Abdug'ani o'g'li

Jizzax Politexnika instituti Buxgalteriya

hisobi va audit yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Qahhorova Mashhura Baxrom qizi

O'zMU Jizzax filiali iqtisodiyot yo'nalishi bakalavr 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810755>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada mahalla institutining jamiyatni yuksaltirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlaridagi strategik ahamiyati kompleks tahlil qilingan. Mahallaning konstitusiyaviy-huquqiy asoslari, institusional islohotlar, kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, raqamli transformasiya jarayonlari hamda jamoatchilik nazorati mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mahalla, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy himoya, bandlik, kambag'allik, raqamli boshqaruv, strategik rivojlanish.

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmogda. Mazkur jarayonda mahalla instituti jamiyatni boshqarishning eng quyi, biroq eng ta'sirchan bo'g'ini sifatida o'zining strategik ahamiyatini namoyon etmogda. Yangi tahrirdagi Konstitusiyada mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mustahkamlanib, uning vakolatlari kengaytirildi. Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi tadbirkorligini rivojlantirish orqali ularning daromadlarini ko'paytirish pirovardida kambag'allikni qisqartirishga alohida e'tibor qaratilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan "iqtisodiy kompleks idoralari ishni mahallalar darajasida tashkil etishi, tijorat banklari joylarda yuqori samarali loyihalarni amalga oshirib, ayniqsa, yosh tadbirkorlarga keng yo'l berishi kerakligi" qayd etilgan. Shunga ko'ra mahallalar imkoniyatlarini inobatga olgan holda aholining daromad topishiga xizmat qiluvchi loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish muhim hisoblandi. Shuningdek, mahallalarda aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish hisobiga kambag'allikni qisqartirishga e'tibor qaratish, bunda "mahalla-oila-fuqaro" tamoyili asosida aholi hayotidagi muammolarni tizimli o'rganish va o'z vaqtida, to'lig'icha hal etishga xizmat qiluvchi «mahallabay» ishlash tizimi joriy etilmogda.

«Mahallabay» ishlash tizimining asosiy yo'nalishlar sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin:

- Aholida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga oid qiziqish va intilishlarini aniqlash va ularning mazkur faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga qaratilgan o'quv kurslarini tashkil etish. Mazkur o'quv kurslarini tashkil etishga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda nodavlat ta'lim muassasalarini jalb qilish;

- Yoshlar va xotin-qizlar tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishlarini amalga oshirishlari uchun amaliy yordam ko'rsatish orqali kambag'allikni qisqartirish. Natijada, ularning o'zini-o'zi band qilishga erishish;

- Banklar mahallalardagi aholining tadbirkorlik intilishlarini ro'yobga chiqarishda kreditlardan foydalanishlari uchun biznes-rejalarni ishlab chiqishda maslahatlar berish, zarur biznes axborotlarni berib borish;

- Mahallarning “o'sish nuqta”larini aniqlash, aholining mazkur o'sish nuqtalari asosida yangi tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, mavjud tadbirkorlik subyektlari kooperatsiyalarini yo'lga qo'yish;

- Hududlarda aholi tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'ladigan shart-sharoitlarni yaratish, mavjud to'siqlarni to'lig'icha bartaraf etish orqali aholining tadbirkorlikni yo'lga qo'yish orqali daromadga ega bo'lishlarini ta'minlash.

Umuman olganda mahalla fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish shakli bo'lib, jamoatchilik tashabbusi va ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida faoliyat yuritadi. Uning huquqiy maqomi Konstitutsiya va sohaviy qonunlar bilan tartibga solinadi. So'nggi islohotlar mahallaning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarini aniq belgilab berdi.

Bugungi kunda mahalla va kambag'allikni qisqartirish mexanizmlari sifatida

kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mahalla darajasida ehtiyojmand oilalarni aniqlash, manzilli ijtimoiy yordam ko'rsatish, kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy himoya tizimi mustahkamlanmoqda.

Mahalla darajasida yangi ish o'rinlari yaratish, aholini kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayoni jadal rivojlanayotgan bir davrda mahalla boshqaruvu jarayonlariga ham raqamli texnologiyalarni joriy etish mahalla faoliyati shaffofligini oshirish, aholi murojaatlarini tezkor ko'rib chiqish hamda ijtimoiy monitoringni amalga oshirish imkonini beradi deb hisoblayman. Mahalla huquqbuzarliklarning oldini olish, yoshlar tarbiyasi, ma'naviy muhitni mustahkamlash va davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda muhim institut hisoblanadi.

Joriy yilning 23-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yildagi asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishida respublika bo'yicha 903 ta “Og'ir” mahallaning bosh rejasini ishlab chiqish, mavjud muammolarini hal etishda shaharsozlik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yechimlarni xal etishda ilmiy asoslangan xulosalar taqdim etilishi belgilangan.

Shu munosabat bilan 2026 yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” munosabati bilan Baxmal tumani “Uzunbuloq” mahallasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha bir qator o'rganishlar olib borilganda quyidagilar aniqlandi. Jumladan “Uzunbuloq” MFY da xonadonlar soni – 735 ta bo'lib unda istiqomqt qiluvchi oilalar soni – 886 tani tashkil etadi. Jami aholi soni – 4885 nafar, (shundan, ayollar soni-2480 nafar, yoshlar soni-1215 nafar), migrantlar soni – 71ta.

Ishsizlar soni – 95 ta, ishsizlik darajasi 4,9%, kambag'al oilalar soni - 74 ta, kambag'allik darajasi 6.9%.

Mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida tegishli mas'ullar bilan birgalikda 2026 yilga mo'ljallangan yo'l xaritasi ishlab chiqilib, 75 ta amalga oshiriladigan ishlar bajarilishi lozimligi belgilangan.

Xulosa qilib aytganda Mahalla instituti O‘zbekistonda jamiyatning eng kichik ijtimoiy bo‘g‘ini sifatida uzoq tarixdan buyon ahamiyatli rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda mahalla nafaqat an’anaviy jamiyatlar tizimini saqlab qoluvchi omil, balki ijtimoiy barqarorlik, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashda strategik ahamiyatga ega. Mahalla institutining jamiyatni yuksaltirishdagi strategik o‘rni quyidagi jihatlar bilan ifodalanadi: birinchidan, mahalla o‘zida fuqarolarni birlashtiruvchi ijtimoiy mexanizm sifatida xizmat qiladi, aholi orasida birligi va hamkorlik ruhini mustahkamlaydi; ikkinchidan, mahalla strategik ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda mahalliy resurs va ehtiyojlarni aniqlashda hal qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi; uchinchidan, u mahalliy darajada ijtimoiy himoya, bandlikni ta‘minlash va infrastrukturani rivojlantirish yo‘lida amaliy mexanizmlarni shakllantiradi.

Mahalla infrastrukturasi yaxshilash bo‘yicha ko‘chalarni birlashtiruvchi oraliq yo‘lining 1 km qismini shag‘allashtirish, 5 ta ko‘chalarning 3.5 km yo‘llar joriy ta‘mirlash, elector ta‘minoti uchun 274 ta stolba o‘rnatish, 1.2 km salomatlik va piyodalar yo‘lakchalarini qurish, mahallaga 2 ta transformator va 100 ta tungi chiroqlar o‘rnatish, qishloq vrachlik punktini zamon talablari darajasidan kelib chiqib jihozlash, sport maydonchasi qurish, o‘quv markazi va mahalla binosida kutubxona tashkil etish kabi 2026 yil uchun tuzilgan yo‘l xaritasida belgilangan vazifalar to‘liq amalga oshirilsa, mahallada 95 ta ish o‘rini yaratiladi va “ishsizlikdan holi mahalla”ga aylantiriladi. Bundan tashqari 56 ta oila kambag‘allikdan chiqarilib, “kambag‘allikdan holi mahalla”ga aylantirish imkoni bo‘ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan videosektor yig‘ilishi berilgan topshiriqlar. 23.01.2026 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6017-son “Mahallabay ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 07.02. 2020 yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5138-son “Mahallabay ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qarori, 12.01. 2022 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6349-son “Ijtimoiy xizmatlar milliy tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, Toshkent, 2024 yil.
5. Lex.uz